

UDK: 32C(c52):31

AKSIZ SOLIG'IGA TORTISHNING SHAKLLANISHI VA HOZIRGI VAQTDAGI HOLATI TAHLILI

G'afforov Shuxrat Nasriyevich

Toshkent davlat Iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Gafforov_shn@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada aksiz solig'inining shakllanishi va hozirgi holati tahlil qilinadi. Aksiz solig'inining nazariy asoslari, uning davlat byudjetidagi o'rni, soliqqa tortish obyektlari va subyektlari ko'rib chiqiladi. O'zbekistonda aksiz solig'i tizimini takomillashtirish bo'yicha so'nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlar va ularning natijalari tahlil qilinadi. Shuningdek, aksiz solig'i ma'muriyatçiliginin yanada takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: aksiz solig'i, soliq tizimi, byudjet daromadlari, soliq ma'muriyatçiligi, soliq islohotlari.

АННОТАЦИЯ

В данной статье будет проанализировано формирование и текущее состояние акцизов. Рассмотрены теоретические основы акциза, его место в Государственном бюджете, объекты и субъекты налогообложения. Анализируются реформы последних лет и их результаты по совершенствованию системы акцизного налогообложения в Узбекистане. Также будут даны рекомендации по дальнейшему совершенствованию акцизного администрирования.

Ключевые слова: акциз, налоговая система, доходы бюджета, налоговое администрирование, налоговая реформа.

ABSTRACT

This article analyzes the formation and current status of excise taxes. The theoretical basis of excise taxes, its place in the state budget, objects and subjects of taxation are considered. The reforms carried out in recent years to improve the excise tax system in Uzbekistan and their results are analyzed. Recommendations are also made to further improve excise tax administration.

Keywords: excise tax, tax system, budget revenues, tax administration, tax reform.

KIRISH

Zamonaviy sharoitda soliq tizimida aksiz solig'ini takomillashtirishning xususiyatlari va usullarini o'rganish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Aksiz solig'i davlat iqtisodiy siyosati faoliyatining muhim tarkibiy qismi bo'lib, u milliy iqtisodiyot moliyaviy resurslarning muhim qismi oqimini ta'minlaydi [1].

Aksiz solig'i tizimi murakkab bo'lib, uni davlat byudjetida hisoblash vazifalari bilan tarixiy aloqalarni shakllantiradi. Shu bilan birga, aksiz solig'i miqdori soliqqa tortiladigan tovarlar narxlari darajasini sezilarli darajada belgilaydi, shuningdek, iste'mol talabiga ta'sir qiladi [2].

Maqolaning maqsadi aksiz solig'ining shakllanishi va hozirgi holatini tahlil qilish, O'zbekistonda bu borada amalga oshirilayotgan islohotlarni o'rganish va aksiz solig'i tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLLI

O'zbekiston Respublikasining soliq qonunchiligi, xususan Soliq kodeksi, Prezident farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari o'rganildi. Shuningdek, aksiz solig'i bo'yicha ilmiy maqolalar va monografiyalar tahlil qilindi.

Aksiz solig'ining afzalliklarini ingliz iqtisodchisi U.Peti "Soliqlar va yig'imlar haqida traktat" (1662) asarida ishonchli tarzda ochib bergen. U aktsizlar foydasiga to'rtta dalilni aniqladi [3]:

1. Tabiiylik va adolat - har kim o'zi iste'mol qilgan narsaga qarab to'lashni talab qiladi.
2. Tejamkorlikka yordam beradi.
3. Bir xil narsa uchun ikki marta to'lanmaydi.
4. Mamlakat boyligini baholash imkonini beradi.

M.V.Kashirinaning fikricha, aksiz solig'i tizimi murakkab hisoblanadi. Aksiz solig'i va alkogolli mahsulotlarning muomalasini nazorat qilish muammosi mavjud, chunki ularni sotish hajmi noqonuniy ishlab chiqarishni rivojlantirish ko'lamiga to'g'ri keladi va katta miqdordagi mablag'lar davlat byudjetidan tashqarida muomalada bo'ladi [4].

A.V.Tsemerjinskayaning ta'kidlashicha aksiz solig'ini qo'llashda davlat tomonidan nazoratni kuchaytirish zarur. Tovarlarning ma'lum bir ro'yxatiga, masalan, tamaki va alkogolli mahsulotlarga aksiz solig'ini qo'llashda, davlat ancha qat'iy siyosat olib boradi va aksiz stavkalarini doimiy ravishda oshirishni davlat tomonidan nazarda tutilgan chora-tadbirlar sifatida ajratib ko'rsatish mumkin [5].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolani tayyorlashda tarixiy, mantiqiy, tizimli va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 283-moddasiga asosan aksiz solig'ini to'lovchilari va 284-moddasida esa aksiz solig'i solinadigan obyektlari keltirib o'tilgan [6].

Aksiz solig'i to'lovchilari:

- Aksiz to'lanadigan tovarlarni ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslar
- Aksiz to'lanadigan tovarlarni import qiluvchi yuridik va jismoniy shaxslar
- Aksiz to'lanadigan xizmatlarni ko'rsatuvchi yuridik shaxslar

Aksiz solig'i solinadigan obyektlar:

- Aksiz to'lanadigan tovarlarni realizatsiya qilish
- Aksiz to'lanadigan tovarlarni import qilish
- Aksiz to'lanadigan xizmatlarni ko'rsatish

O'zbekistonda aksiz solig'i tizimini takomillashtirish va soddalashtirishga alohida e'tibor berilmoqda. Buning yaqol namunasi bo'lib, quyidagi me'yoriy hujjatlarni qabul qilinishidir [7]:

- O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi "Soliq va byudjet siyosatining 2023-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-812-sonli qonuni;
- O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 30 dekabrdagi "2023 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi O'RQ-813-sonli qonuni;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-dekabrdagi "Respublika hududlarini toifalarga ajratish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning tabaqalashtirilgan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-287-son Farmoni;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining «2023-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida»gi Qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-471-son qarori.

Yuqorida keltirilgan hujjatlarda 2023-yilda aksiz solig'i ma'muriyat chiligiga o'zgartirishlar kiritildi. Xususan:

- Tamaki mahsulotini iste'mol qilish tizimi bo'yicha suyuqlikdagi nikotinga emas balki, suyuqlikning hajmidan kelib chiqib hisoblash tartibi joriy qilindi.

• 2023-yil 1-fevraldan filtrli, filtrsiz sigaretalar, papiroslar, sigarillalar, bidi, kretekni ishlab chiqarishda absolyut miqdorda belgilangan aksiz solig'i stavkalari 10 foizga oshirildi.

• 2023-yil 1-yanvardan alkogol mahsulotlarini (vinolar, pivo, likyor va spirt past boshqa ichimliklar mustasno) ishlab chiqarishda aksiz solig'i aksiz to'lanadigan mahsulot tarkibidagi etil spirtining ulushidan kelib chiqqan holda hisoblab chiqarish tartibi joriy qilindi.

• Ishlab chiqariladigan alkogol mahsulotining o'lchov birligi "litr"da hisoblanadigan (ilgari "dal"da edi) bo'ldi.

• 2023-yilning 1-yanvaridan boshlab alkogol mahsulotlarini import qilishda aksiz solig'i stavkalari 5 foizga pasaytirildi.

• 2023-yil 1-fevraldan neft mahsulotlari bo'yicha aksiz solig'i stavkalari 10 foizga oshirildi.

O'zbekiston Respublikasida 2018-2022-yillarda Davlat byudjeti tushumlarida bilvosita soliqlar tahlili quyidagi xulosalarga kelish imkonini beradi [8]:

1. Tahlil qilinayotgan davrda soliq tushumlari yildan yilga oshgan. 2018-yilda bu ko'rsatkich 79 099,0 mlrd. so'm bo'lgan bo'lsa, 2022-yilda esa 201 863,7 mlrd. so'mni tashkil etgan.

2. Bilvosita soliqlar bo'yicha ham tushumlar oshish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bilvosita soliqlar 2018-yilda 41 280,4 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2021-yilda 56 290,5 va 2022-yilda 71 390,2 mlrd. so'm bo'lgan.

3. Aksiz solig'i bo'yicha tushumlarni absolyut miqdori oshgan. Bu ko'rsatkich 2018-yilda 9 702,2 mlrd. so'm bo'lib, 2022-yilda 13 455,0 mlrd. so'mni tashkil etgan.

4. Aksiz solig'ining davlat byudjetiga tushumidagi ulushi kamayish tendensiyasiga ega bo'lib, 2018-yilda 12,27 foizni, 2021-yilda 7,95 va 2022-yilda 6,67 foiz bo'lgan.

5. Aksiz solig'ining bilvosita soliqlar tushumidagi ulushi ham pasaygan: 2018-yilda 23,50 foiz, 2021-yilda 23,25 foiz va 2022-yilda 18,85 foizni tashkil etgan.

2022-yilda aksiz solig'i bo'yicha tushumlar 13,5 trln so'mni tashkil etib, 2021-yilgi nisbatan 0,4 mlrd so'mga yoki 2,8%ga oshdi. 2022-yilda soliq organlari tomonidan yig'ilgan aksiz solig'i tushumlari 13,1 trln so'mni tashkil etib, 2021-yilga nisbatan 0,3 trln so'mga, 2020-yilga nisbatan 2,2 trln so'mga oshgan bo'lsa, bojxona organlari tomonidan yig'ilgan aksiz solig'i tushumlari 377,8 mlrd so'mni tashkil etib, 2021-yilga nisbatan 70,1 mlrd so'mga oshib, 2020-yilga nisbatan 480,7 mlrd so'mga kamaydi [9].

2022-yilda jami aksiz solig'i tushumlarida bojxona qo'mitasi tushumlarining ulushi 2020 yilga nisbatan qariyb 480,7 mldr so'mga yoki 56%ga kamayishining asosiy sababi 2021-yil boshidan boshlab tovarlarni olib kirishda 73 ta pozitsiya bo'yicha tovarlarga aksiz solig'i stavkalari bekor qilinishidir[10].

Tamaki mahsulotlari bo'yicha aksiz solig'i stavkasi 10%ga oshirilishiga qaramay 2022-yil davomida ushbu mahsulotlar bo'yicha tushumlar 3,6%ga oshdi.

O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi "2023-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi ORQ-813-sonli qonunining 12-moddasida 2023-yil uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetining, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining, tumanlar va shaharlar byudjetlarining daromadlarini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari belgilab berilgan [11].

Unga ko'ra:

- Benzinni, dizel yoqlig'isini va gazni yakuniy iste'molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig'i Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjetiga, viloyatlarning viloyat byudjetlariga va Toshkent shahrining shahar byudjetiga to'liq hajmda o'tkaziladi.
- Mobil aloqa xizmatlari, tamaki, alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig'i bo'yicha tushumlar, tegishlicha o'tgan moliya yilining 1-iyul holatiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasidan olingan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri aholisi sonining respublika aholisi sonidagi ulushiga muvofiq taqsimlanadi.

1-jadval.

O'zbekiston Respublikasida 2018-2022 yillarda Davlat byudjeti tushumlarida bilvosita soliqlar tahlili (mlrd.so'm)

T/ R	Ko'rsatkichlar	2018	2019	2020	2021	2022
1	DAROMADLAR (MAQSADLI JAMG'ARMALARS IZ) - JAMI	79,099.0	112,165.4	132,938.0	164,680.3	201,863.7
2	Bilvosita soliqlar	41,280.4	46,427.2	46,428.4	56,290.5	71,390.2
2.1	Qo'shilgan qiymat solig'i	27,876.5	33,809.8	31,177.4	38,439.0	52,189.4
2.2	Aksiz solig'i	9,702.2	10,314.7	11,697.3	13,086.6	13,455.0
2.3	Bojxona boji	1,826.4	2,302.7	3,553.7	4,764.9	5,745.7
3	Jami tushumlarda aksiz solig'i ulushi (%)	12.27	9.20	8.80	7.95	6.67

4	Bilvosita soliqlar tushumida aksiz solig'i ulushi (%)	23.50	22.22	25.19	23.25	18.85
---	---	-------	-------	-------	-------	-------

Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqildi.

Ushbu jadval O'zbekiston Respublikasida 2018-2022-yillarda Davlat byudjeti tushumlarida bilvosita soliqlar dinamikasini ko'rsatadi. Jadvaldan ko'rinish turibdiki, davlat byudjeti daromadlari va bilvosita soliqlar tushumlari yildan-yilga o'sib borgan. Biroq, aksiz solig'inining umumiyligi tushumlardagi va bilvosita soliqlar tarkibidagi ulushi pasayish tendensiyasiga ega. 2018-yilda aksiz solig'i umumiyligi tushumlarning 12.27% ini tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilga kelib bu ko'rsatkich 6.67% gacha pasaygan. Bu holat aksiz solig'i stavkalarining optimallashtirilishi va boshqa soliq turlaridan tushumlarning o'sishi bilan izohlanishi mumkin.

**Jadval 2.
"UZBAT AO" AKSIYADORLIK JAMIYATI tomonidan filtrli sigaretaga
2018-2022-yillarda hisoblangan aksiz solig'i tahlili**

T/R	Ko'rsatkichlar	2018	2019	2020	2021	2022
1	Aksizosti tovarlar realizatsiyasi (ming dona)	801,560.00	1,179,518.14	1,072,094.00	955,011.80	892,132.20
2	Soliqqa tortish bazasini kamaytirish (eksportga sotish) (ming dona)	-	302,140.00	288,860.00	289,360.40	380,110.80
3	Aksiz solig'ini soliqqa tortish bazasi (ming dona)	801,560.00	877,378.14	783,324.00	665,706.20	512,021.40
4	Aksiz solig'i stavkasi (so'm)	84,222.00	141,500.00	163,500.00	185,000.00	203,500.00
5	Aksiz solig'i summasi (mln.so'm)	67,508.9	136,238.0	128,073.5	123,155.6	104,196.4

Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqildi.

Bu jadval "UZBAT AO" AKSIYADORLIK JAMIYATI misolida filtrli sigaretalar bo'yicha aksiz solig'i hisoblanishini ko'rsatadi. 2018-2022 yillar davomida aksiz solig'i stavkasi sezilarli darajada oshgan - 84,222 so'mdan 203,500 so'mgacha. Biroq, soliqqa tortish bazasi kamayib borgan, bu eksportga sotish hajmining oshishi

va mahalliy bozorda realizatsiya hajmining pasayishi bilan bog'liq. Natijada, 2022 yilda hisoblangan aksiz solig'i summasi 2019 yildagi eng yuqori ko'rsatkichdan pastroq bo'lgan. Bu ma'lumotlar aksiz solig'i siyosatining murakkabligini va uni belgilashda turli omillarni hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Aksiz solig'i davlat byudjetining muhim daromad manbalaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda O'zbekistonda aksiz solig'i tizimini takomillashtirish bo'yicha qator islohotlar amalga oshirildi. Xususan:

1. Aksiz solig'i stavkalari indeksatsiya qilindi va ayrim mahsulotlar bo'yicha pasaytirildi.
2. Aksiz solig'ini hisoblash tartibi soddalashtirilib, takomillashtirildi.
3. Aksiz solig'i tushumlarini mahalliy byudjetlarga taqsimlash tartibi belgilandi.
4. Aksiz solig'i ma'muriyatçiliginin takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Biroq, aksiz solig'i tizimini yanada takomillashtirish uchun quyidagi yo'nalishlarda ishlarni davom ettirish maqsadga muvofiq:

1. Aksiz solig'i stavkalarini bosqichma-bosqich maqbullashtirish va ularni xalqaro standartlarga moslashtirish.
2. Aksiz solig'i ma'muriyatçiligini raqamlashtirish va avtomatlashtirish darajasini oshirish.
3. Aksiz solig'i to'lovchilar uchun soliq hisobotlarini taqdim etish tartibini yanada soddalashtirish.
4. Aksiz solig'i bo'yicha soliq nazoratini kuchaytirish va noqonuniy muomalani kamaytirish choralarini ko'rish.

5. Aksiz solig'i tizimini takomillashtirishda ilg'or xorij tajribasini chuqr o'rganish va milliy sharoitga moslashtirgan holda joriy etish.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, aksiz solig'i tizimini takomillashtirish bo'yicha islohotlarni izchil davom ettirish davlat byudjeti daromadlarini barqaror shakllantirishga, iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini rivojlantirishga va aholining ijtimoiy himoyasini ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI(REFERENCES):

1. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2019 y.
2. Malikov T.S., Jalilov P.T. Byudjet-soliq siyosati. Darslik. - T.: "Akademiya", 2011. - 472 b.

3. Ungboevich, M. O. K. (2024). APPLICATION OF DIGITAL PLATFORMS IN THE STATISTICAL SYSTEM BASED ON INTERNATIONAL EXPERIENCE. *European Journal of Economics, Finance and Business Development*, 2(7), 16-23.
4. Ungboevich, M. O. (2024). RESEARCH ON IMPROVING THE EFFICIENCY OF DIGITAL PLATFORMS IN THE STATISTICAL SYSTEM. *Synergy: Cross-Disciplinary Journal of Digital Investigation* (2995-4827), 2(9), 4-8.
5. Kaširina M.V. Aktual'nye problemy nalogoooblojeniya akcizami // Nalogi i nalogoooblojenie. - 2016. - №6. - S. 452-459.
6. Cemerjinskaâ A.V. Soveršenstvovanie akciznoj politiki Rossijskoj Federacii // Nalogi i nalogoooblojenie. - 2018. - №5. - S. 1-8.
7. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. <https://lex.uz/docs/4674902>
8. O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 30 dekabrdagi "Soliq va byudjet siyosatining 2023 yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-812-sonli qonuni. <https://lex.uz/docs/6333227>
9. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining rasmiy sayti. <https://soliq.uz>
10. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining rasmiy sayti. <https://www.mf.uz>
11. O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 30 dekabrdagi "2023 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi O'RQ-813-sonli qonuni. <https://lex.uz/docs/6333286>